



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 28-noyabr

684-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 26-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yovvoyi hayvonlarni saqlash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 5-noyabrdagi 736-son qarori ijrosi haqida”gi 569-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yovvoyi hayvonlarni saqlash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 5-noyabrdagi 736-son qarori va Namangan viloyat hokimining 2024-yil 26-noyabrdagi 569-6-0-Q/24-son qarorini tumanda ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 26-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Shaharlar va boshqa aholi punktlari ko‘chalari hamda ichki xo‘jalik yo‘llari infratuzilmasini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2024-yil 5-noyabrdagi 736-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 569-6-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasining “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunining 43-moddasiga muvofiq jismoniy shaxslar tomonidan yarim erkin sharoitlarda, sun‘iy yaratilgan yashash muhitida yoki tutqunlikda saqlanishi taqiqlangan yovvoyi hayvonlarning ro‘yxati, shuningdek, mazkur ro‘yxatga kiritilgan yovvoyi hayvonlarni yuridik shaxslar tomonidan saqlash tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi ma‘lumot uchun qabul qilinganligi; quyidagilar:

Jismoniy shaxslar tomonidan yarim erkin sharoitlarda, sun‘iy yaratilgan yashash muhitida yoki tutqunlikda saqlanishi taqiqlangan yovvoyi hayvonlar ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

Jismoniy shaxslar tomonidan yarim erkin sharoitlarda, sun‘iy yaratilgan yashash muhitida yoki tutqunlikda saqlanishi taqiqlangan yovvoyi hayvonlar ro‘yxatiga kiritilgan yovvoyi hayvonlarni yuridik shaxslar tomonidan saqlash tartibi to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

shunday tartib o‘rnatilganki, unga muvofiq:

a) 2025-yil 1-yanvardan boshlab:

Jismoniy shaxslar tomonidan yarim erkin sharoitlarda, sun‘iy yaratilgan yashash muhitida yoki tutqunlikda saqlanishi taqiqlangan yovvoyi hayvonlar ro‘yxatiga (keyingi o‘rinlarda – ro‘yxat) kiritilgan yovvoyi hayvonlarni jismoniy shaxslar tomonidan yarim erkin sharoitlarda, sun‘iy yaratilgan yashash muhitida yoki tutqunlikda saqlash;

yovvoyi hayvonlarni davlat va mobil sirkalarida (shapitolar) saqlash hamda ulardan sirk tomoshalarini o‘tkazish maqsadlarida foydalanish taqiqlanishi;

b) ro‘yxatga kiritilgan yovvoyi hayvonlar O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining ruxsatnomalari asosida belgilangan tartibda faqat

yuridik shaxslar tomonidan tashkil etilgan hayvonot bogʻlari va (yoki) pitomniklarda (terrarium, okeanarium, serpentariy va boshqalar) saqlanishi mumkinligi;

Bunda roʻyxatdagi Oʻzbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan yovvoyi hamda zaharli hayvonlar qonunchilikka muvofiq maxsus pitomniklarda saqlanishi;

belgilanishicha, jismoniy shaxslar, shuningdek, davlat va mobil sirkalar (shapitolar) ixtiyoridagi roʻyxatga kiritilgan yovvoyi hayvonlar:

shartnoma asosida yovvoyi hayvonlar saqlash uchun hayvonot bogʻlari va (yoki) pitomniklarga pulli yoki bepul topshirilishi;

Oʻzbekiston faunasiga mansub boʻlganda, ular uchun mos boʻlgan tabiiy yashash muhitiga, Oʻzbekiston faunasiga mansub boʻlmaganda esa, Oʻzbekiston Respublikasi hududidan tashqariga qonunchilikda belgilangan tartibda chiqarib yuborilishi mumkinligi;

Oʻzbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya hamda Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda roʻyxatga kiritilgan jismoniy shaxslar ixtiyoridagi, shuningdek, davlat va mobil sirkalarda (shapitolar) saqlanayotgan yovvoyi hayvonlarni 2026-yil 1-yanvarga qadar hayvonot bogʻlari va (yoki) pitomniklarga topshirilishini taʼminlashi;

Oʻzbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi Tashqi ishlar vazirligi hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi bilan birgalikda yovvoyi hayvonlarni hayvonot bogʻlaridagi rehabilitatsiya markazlarida saqlash uchun xalqaro va donor tashkilotlarning begʻaraz koʻmak mablagʻlarini jalb etish choralarini koʻrishi;

Oʻzbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda roʻyxatga kiritilgan yovvoyi hayvonlarni noqonuniy saqlash holatlarining oldini olish boʻyicha nazorat tadbirlarini kuchaytirsin hamda aniqlangan huquqbuzarliklar yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda choralar koʻrilishini taʼminlashi;

Oʻzbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda:

yovvoyi hayvonlarni yarim erkin sharoitlarda, sunʼiy yaratilgan yashash muhitida yoki tutqunlikda saqlash boʻyicha minimal talablarni tasdiqlashi;

oʻzlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirishi maʼlumot uchun qabul qilinsin.

3. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi tuman boʻlimi tegishli tashkilotlar bilan birgalikda roʻyxatga kiritilgan jismoniy shaxslar ixtiyoridagi, shuningdek, davlat va mobil sirkalarda (shapitolar) saqlanayotgan yovvoyi hayvonlarni 2025-yil 25-dekabr qadar hayvonot bogʻlari va (yoki) pitomniklarga topshirilishini taʼminlasin.

4. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi tuman boʻlimi Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yovvoyi hayvonlarni saqlash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 2024-yil 5-noyabr dagi 736-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining oʻrinbosari X.Boylarov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov